

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10801938>

## O‘ZBEK MILLIY RANGTASVIRI XORIJLIK RASSOMLAR IJODIDA

**Rajabov Ulug‘bek Nurillayevich**

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti o‘qituvchisi

### *ANNOTATSIYA*

*Ushbu maqolada O‘zbekistonda yashab ijod qilgan xorijlik rassomlar xaqida shuningdek, ularning ijodi tahlil qilindi va ularning uslublari o‘rganib chiqildi. Rassomlarning san‘at asari namunalarida ishlatilgan texnika, uslub hamda yo‘nalishlar solishtirilib o‘rganildi.*

***Kalit so‘zlar:** Pavel Petrovich Benkov, Konstantin Bogoduxov, Karahan Nikolay Giorgiyevich.*

## UZBEK NATIONAL PAINTING BY FOREIGN ARTISTS

**Rajabov Ulug‘bek Nurillayevich**

Teacher of the National Institute of Fine Arts

and design named after Kamoliddin Behzod

### *ABSTRACT*

*In this article on foreign artists living and working in Uzbekistan, their work was also analyzed and their styles studied. The technique, style and directions used in the samples of the artists' artwork were studied in comparison.*

***Keywords:** Pavel Petrovich Benkov, Konstantin Bogodukhov, Karakhan Nikolay Giorgievich.*


Barchamizga ma'lumki yurtimizda ko'plab taniqli rassomlar yashab ijod qilishgan. Yurtimizning go'zal tabiati, takrorlanmas manzarasi doim ijodkorlarni befarq qoldirmaydi. Hattoki ko'plab taniqli horijlik rassomlar ham yurtimizga tashrif buyurib, bu yerning go'zalligiga mahliyo bo'lib hayotining so'ngiga qadar go'zal O'zbekistonda yashab ko'plab ijod na'munalarini yaratdilar va tasviriy san'at sohasini rivojlanishiga o'zlarining yuksak hissalarini qo'shib keldilar. Bu rassomlardan biri Pavel Petrovich Benkov bo'lib u 1879-yilda Qozon shaxrida hunarmand oilasida dunyoga keldi. O'rta ma'lumotni Qozon rassomlik maktabida olgandan so'ng 1902-yilda Povel Petrovich Peterburg badiiy akademiyasiga imtixonsiz qabul qilindi. O'qishni tugatgandan keyin u tez tez xorij mamlakatlarida yashadi. Benkov Parijda, Rimda, Madridda buyuk rassomlardan Veloskes bilan Rembrantning boy merosini o'rgandi.

Rassom akademiya ustozlari mashhur rassom - grafik Kordovskiy va buyuk Reninlarni nomini hurmat bilan tilga olgan. Benkov ijodi yirik rus demokrat rassomlari ta'sirida tarkib topdi. Realistik san'at Benkov ijodining asosiy prinsipi bo'lib qoldi. Nafis tasviriy san'at uning uchun hayotni aktiv aks ettiruvchi vositalardan biri bo'ldi.

Rassomning 40 yildan oshiq ijodiy faoliyati davomida boshqa ko'p rassomlarga, shu jumladan, o'z ustozlariga o'xshamagan uslubini shakllantirdi. Benkovning o'ziga xos original uslubga ega bo'lishida, uning O'zbekistonda yashashi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Maalan, «Uzum uzish» surati bunga yorqin misol bo'la oladi. Uning mazkur kartinasida ko'p millatli qizlarning obrazi orqali vatanimizda xalqlar do'stligi g'oyasi ochib berilgan. Bu suratni ko'rar ekanmiz kishi o'zida odamlar orasidagi do'stlikning hech qachon buzilmasligiga qat'iy ishonch hosil qiladi, unda quvonch, kayfiyat taasuroti akslanadi. Surat yorqin bo'yoqlarda ishlangan bo'lib, unda musaffo osmon, serquyosh O'zbekistonning go'zal tabiati juda yaxshi tasvirlab berilgan.

Uning yana bir asariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "Bibixonimda bahor" nomli asaridir. Asarda Bibixonim maqbarasidagi bog' tasvirlangan bo'lib, asosan bahor faslining go'zalligini yorqin ranglar orqali o'z qarashidan kelib chiqib tasvirlagan. Asarning orqa planida esa Bibixonim madrasasini siluetini ham aks ettirgan. Asrning

kompozitsion yechimi juda mohirlik bilan hal etilgan. Asarda asosan ranglar koloritini pushti binafsha ranglar tashkil etib, unda impressionistik ranglarni uyg'unligi ko'zga yaqqol tashlanadi. Asrda issiq va sovuq ranglarni uyg'unlashtirib bir xil koloritga olib keligani ham uni mahoratini ko'rsatib turibdi. Musavvira rang imkoniyatlariga, turli ramzlarga alohida e'tibor qiladi. Aytaylik, gullagan daraxt shoxi tasviri o'z ma'nosidan tashqari, bahoriy kayfiyat, san'atkorlarga xos his-tuyg'u manbai sifatida mavjlanadi. U asari orqali o'z his-hayajonini tomoshabinga yetkazib bera olgan. Uning shu kabi ko'plab asarlarini kuzatar ekanmiz uning O'zbekistonni qanchalik sevishiga guvoh bo'lamiz.



*Benkov Pavel Petrovich. "Quyoshli kun"*


Benkovning chizgan asarlarida respublika hayotidagi ko'pgina muhim voqealar o'z ifodasini topdi. Rassom 70 yoshida vafot etdi va ko'pgina ijodiy rejalari amalga oshmay qoldi.

Yana bir malakali uta rassom Konstantin Bogoduxov zamonasining o'zbek lirik manzarachi rassomi, notryumort janrida ajoyib mahorat egasidir. Bogoduxovning manzaralarida fazo kengligi, o'zbek yerining boyligi, serhosilligi «Beda o'rini», «Qorasuvda Bahor», «Kech kuz», «Baxmal yangiliklari», «Baxor» kabi asarlarida aks ettirilgan. Rassom moy bo'yoqda ishlagan kartinalarida O'zbekistonda atir gullarining ko'rki, beqiyos jozibasi, to'la aks ettiribgina qolmay, gohida ularning xush hidi ham anqib turganday bo'ladi.


Yurtimiz tasviriy san'atining rivojlanishiga hissa qo'shgan va O'zbekistonda yashab ijod qilgan yana bir rassom Karahan Nikolay Giorgiyevich. U ko'plab asarlarida O'zbekiston manzaralarini, o'zbek xalqining milliy urf-odatlarini, kundalik turmush tarzilarini tasvirlagan.

N.Karaxon tog'li O'zbekiston tabiatiga oshiq bo'lgan. Uning yaratgan asarlarini kuzatadigan bo'lak, yurtimizning go'zal manzalarini mohirlik bilan tavirlanganini ko'rishimiz mumkin. Rangtavor asarlardagi ranglarning yorqinligi, nur soya o'yinlarini

ustalik bilan ifodalanishi O‘zbekistonning qanchalik quyohli yorqin mamlakat ekanligini ko‘ratib beradi. Uning ko‘plab asarlari O‘zbekiston muzeylarida saqlanadi. Uning mashxur asarlaridan biri “Ishga ketishyapti”, “Uyda ikki qiz” asarlaridir.



*Nikolay Karaxan. Uyda ikki qiz.  
Mato moy bo‘yoq.*



*“Tog‘da tong. Etüd”. 1950-1960  
yillar. Karton, moy bo‘yoq.*

Nikolay Karahan bu asari bilan bahoriy uyg‘onosh nafasini o‘ziga xos tarzda ifodalay olgan. Asarda insonni mehnat bilan barhayotligi, uni toza havo, oftob nurlaridan, tabiatdan zavqlanayotgani o‘z aksini topan. Asarning birinchi planida o‘zbek mehnatkash xalqining hush kayfiyat ila mehnat jarayoniga oshiqayotganlarini ko‘rishimiz mumkin. Yo‘lakning ikki tomonida ariqlarda sharqirab oqayotgan suv va ularning yon tomonlarida qiyg‘os gullagan daraxtlar tasvirlangan. Bulardan biz asr aynan uyg‘onish fasli bo‘lgan bahor mavzusida tasvirlanganini ko‘rishimiz mumkin. Uning ko‘plab asarlari O‘zbekiston muzeylarida saqlanadi.

O‘zbekiston Tasviriy san‘ati tarixida Usto Mo‘min nomi bilan kirib kelgan rassom Aleksandr Vladimirovich Nikolayev mamlakatimizning tabiatini go‘zalligiga mahliyo bo‘lgan. Uto Mo‘min O‘zbekistonga kelganida rus tasviriy san‘ati an‘analari bilan yaxshigina tanish edi. Bu yerda u sharq san‘ati an‘analari, san‘atning dekorativligi, chiziqlarning egiluvchanligi, shakl hamda rang masalalari ritmi uni

o'ziga rom qildi. Sharq falsafasi ham uning dunyoqarashi shakllanishida o'ziga xos maktab bo'ldi.

Shunday qilib boshqa «Usto Mo'min» taxallusini olgan san'atkor (mo'min-qobilligi uchun uni xalq shunday atagan) dunyoga keldi. Uning bu izlanishlari asosan 20-yillarga to'g'ri keladi. Shu yillarda o'zining ijod namunalarini xalqqa namoish qildi. Usto Mo'min ijodida Tabriz miniatyura maktabi vakillari Rizo Abbosiy va Sulton Muhammad ijodidan ta'sirlanib ijod qildi. U o'zining ijodini portret janridan boshladi. Bunga misol tariqasida uning «Kuyov», «Sallali yigitlar», «Bedanavoz yigit» kabi asarlari, «Dutorchi» kompozitsiyasi 1920-yillarining boshlarida ishlangan asarlarini ko'rsatishimiz mumkin. Bular o'zining xalq etilgan kompozitsion yechimi bilan o'zbek san'atining yangi qirralarini namoyish etadi dideak mubolag'a bo'lmaydi.

1925-yili Nikolayev Toshkentga ko'chib o'tadi va umrining oxirigacha shu yerda yashab, rangtasvir asarlarini yaratadi, gazeta va jumallarda o'zining asarlari bilan qatnashib keldi, kitoblar uchun illustratsiyalar va ko'plab plakatlar ishladi. Uning 30-yillarda yaratgan yirik asarlaridan biri «Oq oltin» kartinasi ijodidagi yangi qirralarni namoyish etadi. U hikoyanavis, sujetli asarni birodarlik an'analari ruhida bajarib, davr mafkurasiga moslashishga harakat qilganligi ko'rinadi. Bu xususiyat, ayniqsa, eski va yangi hayotni taqqoslovchi «Eski maktab», «O'quvchilar muzeyda» asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Rassomning 40-yillarda ishlagan asarlarida ham shu xususiyat mavjud. Nikolayev tabiatan grafik rassom, u san'atni qaysi uslubida asar yaratmasin, chiziqlar ohangdorligi ishlariga shoirona ruh bag'ishlaydi. Nikolayev teatr dekoratsiyasi borasida ham mehnat qilgan. U Alisher Navoiy nomli opera va balet teatri «Ulug'bek», «Karmen» operalari uchun eskizlar yaratdi.

K.Malevichning shogirdi Usto Mo'min Samarqandga 1921-yilda kelgan. 1 Yurtimizning go'zal manzarasi, ajoyib me'moriy yodgorliklar, rango-rang liboslar va

---

<https://nbu.uz/uz/gallery/o-zbekiston-san-at-tarixi/>

taqinchoqlar uni o'ziga rom qildi. Usto Mo'min o'lka madaniyatini o'rganib borishiga qarab, xalq ustalarining san'atinigina emas, balki O'rta Osiyoning mumtoz miniaturalari merosini ham zo'r qiziqish bilan o'rgandi. 1925-yilda u Toshkentga ko'chib o'tdi. O'zbekistonning xalq, milliy madaniyatiga, O'rta Osiyoning o'ziga xos va boy naqshlariga singib ketgan yuksak qobiliyatli rassom grafika va rang-tasvir bo'yicha eng katta usta o'z ijodiyotida Italiya va rus badiiy ananalarini o'zbek san'ati ananalari bilan bir butun ajralmas ananaga uyg'unlashtirishga intildi.

Uning "Bahor" nomli rangtasvir asari ham bunga yaqqol misol bo'la oladi. U bu asarida ikki o'zbek o'g'lonlarining tasvirini aks ettirgan. Bu obrazlarda o'zbeklarning o'ziga hosligi, plastik jihatdan to'g'ri topilganini ko'rishimiz mumkin. Kompozitsiya jihatidan klassik mavqeiga ega, juda muvafaqqiyatli topilgan. qahramonlar yuzidagi chuqur ruhiy holatni, ularning yuzidagi katta yorug' ko'zlarida, mehnatda toblangan yuz chexasida xaykalga xos o'z ifodasini topgan.

Gavda, «siluet» aniq, engil ranglardagi manzara fonida, binafsha, pushti, yashil, sariq ranglarda shiddatli maxorat bilan tasvirlangan. Asar kompozitsiyasi, rang koloriti, milliy ruhda, insonni zamonaviy xislatlari, kompozitsiya tuzish vositalari namoyon bo'lgan. Yoshlarga metodik tavsiya vazifasini bajaradi.

### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. *Abdullayev N. O'zbekiston san'ati tarixi. – T.: O'zbekiston faylasuflar ilmiy jamiyati, 2007. - 236 b.*
2. *O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. – T.: Davlat milliy nashiryoti, 2006.*
3. "San'at" 3/1999. // "XX asr O'rta Osiyo rang tasvirida o'z- o'zini anglash muammolari"
4. <http://vapayev.zn.uz/allomalar/ozbek-rassomlari/benkov-pavel-petrovich>
5. <https://nbu.uz/uz/gallery/o-zbekiston-san-at-tarixi/>